

---

## O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ttiz ikki yilligi keng nishonlandi

Shu kunlarda barchamiz tinch va farovon hayotimizning muhim kafolati hamda mustahkam huquqiy poydevori bo'lgan Bosh qomusimiz - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining o'ttiz ikki yilligini ko'tarinki kayfiyat bilan nishonlamoqdamiz.

Bugun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan Rishton tumani hokimligida tantanali bayram tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda tuman faollari, huquq-tartibot idoralari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, o'quvchi yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tantanali marosim avvalida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.

Bayram tadbiri avvalida Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqovning tabrigi tuman hokimining birinchi o'rinbosari Doniyorjon Rahmonqulov tomonidan yig'ilganlarga o'qib eshittirildi.

Tadbirda Rishton tumani adliya bo'limi boshlig'i Ikromjon Isaqov "Konstitutsiya - huquq va erkinliklarimiz kafolati" mavzusida ma'ruza qildi.

Tantanali marosimda tuman Madaniyat bo'limi xodimlarining badiiy dasturi namoyish etildi. Shuningdek taniqli xonanda Valijon Qodirov davraga fayz bag'ishladi.

2024-12-07 16:22:33